

Zulfiya (1915-1996)



Zulfiya (1915-1996)



O'zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 mart kuni Toshkentda hunarmand oilasida tug'ilgan. Shoira xotin-qizlar bilim yurtida o'qigan vaqtlaridayoq (1931—1934) adabiy to'garaklarda she'rlar mashq qila boshladi. 1935—1938 yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi. So'ngra 1938—1948 yillarda Bolalar nashriyotida muharrir, O'zbekiston Dav-lat nashriyotida bo'lim boshlig'i, 1950—1953 yillarda esa «O'zbekiston xotin-qizlari» («Saodat») jurnalida bo'lim boshlig'i. 1953—1980 yillarda esa bosh muharrir bo'lib ishladi.

Zulfiya 17 yoshida yozgan «Xayot varaqlari» (1932) birinchi she'rlar to'plami bilan Oydin, Muzayyana Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safiga kirib keldi.

Zulfiyaning ijodiy kamolotida o'zbek va rus mumtoz adabiyoti, xalq og'zaki ijodiyoti va jahon adabiyoti an'alarining roli benihoya bo'ldi.

Shoira «She'rlar» va «Qizlar qo'shig'i» (1938) kabi poetik asarlarini ona-Vatan va uning dala, cho'llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, mexanik, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bag'ishlaydi. Ayni chog'da mazkur to'plamlardagi she'rlari shoiraning she'riy mahorat sirlarini egallayotgan davrini xarakterlovchi asarlar sifatida ham muhim edi.

Urush davrida shoiraning «Uni Farhod der edilar» (1943), «Hijron kunlarida» (1944) kabi to'plamlarining nashr etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan nishona edi. To'plamdagi she'rlar

vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g'alabaga ishonch ruhida yaratilganligi bilan xarakterlidir. Zulfiyaning «Mening Vatanim», «Qo'limda qurolu ustimda shinel», «Bizni kut» kabi umidbaxsh she'rlari urush davri o'zbek she'riyatining jangovar ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o'rin olgan.

Shoiraning urushdan so'nggi yillarda yozilgan «Dalada bir kun» (1948), «Tong qo'shig'i» (1953) kabi bir qator she'rlar turkumi, «Men tongni kuylayman», «Yuragimga yaqin kishilar» (1958), «Kuylarim sizga» (1965) to'plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko'rsatayotgan kishilar hayoti jo'shib kuylanadi. Uni «So'roqlaydi shoirni she'rim» (1960), «Oydin» (1953), «Quyoshli qalam» (1967) kabi ocherk va dostonlari H. Hakimzoda, Oybek, Oydin, Hamid Olimjon kabi ustoddarning yorqin xotiralariga bag'ishlangan.

Zulfiya H. Olimjonning «Semurug'», «Zaynab va Omon» dostonlari asosida pesa va opera librettosini ham yaratgan.

Zulfiya «Uylar», «Shalola» kabi she'riy majmualari uchun Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti sovrindori bo'lgan. Hind mavzuidagi she'rlari uchun Javoharlal Neru nomidagi xalqaro sovrin, tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro «Nilufar» mukofotiga sazovor bo'lgan.

Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda bo'ldi. U 1956 yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehlida o'tkazilgan birinchi konferentsiyasida qatnashib, mashhur «Mushoira» (1958) asarini yaratdi.

Uning she'rlari rus, ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoira Nekrasov, Lermontov, V. Inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvet, M. Dilboziy, Amrita Pritam asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Atoqli shoira 81 yoshida, 1996 yil 1 avgustida vafot etgan.

2023-09-09 14:36:31